



УДК: 37.091.313:811.111:340.143

Shahnoza ARIPOVA,

O'zbekiston respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, PhD

E-mail:shahnozashomansurovaripova@gmail.com

TDYU dotsenti, PhD D.Abdullaeva taqrizi asosida

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF PREPARING FUTURE MILITARY ATTACHÉS

Annotation

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of training future military attachés, their role in the international system, global practices, and Uzbekistan's experience. It emphasizes strategic thinking, diplomatic competences, language proficiency, and the role of independent learning in the preparation process.

Key words: Military diplomacy, attaché, international security, methodology, independent learning.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ВОЕННЫХ АТТАШЕ

Аннотация

В статье анализируются теоретические и методологические основы подготовки военных атташе, их роль в международной системе, мировой опыт и практика Узбекистана. Особое внимание уделено стратегическому мышлению, дипломатическим компетенциям, знанию иностранных языков и роли самостоятельного образования.

Ключевые слова: Военная дипломатия, атташе, международная безопасность, методология, самостоятельное обучение.

KELAJAKDAGI HARBIY ATTASHELARNI TAYYORLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada harbiy attashelarning nazariy va metodologik tayyorlanish asoslari, ularning xalqaro tizimdagi o'rni, jahon amaliyoti va O'zbekiston tajribasi tahlil qilinadi. Maqolada strategik tafakkur, diplomatik kompetensiyalar, til bilimlari hamda mustaqil ta'limning roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: Harbiy diplomatiya, attashe, xalqaro xavfsizlik, metodologiya, mustaqil ta'lim.

Kirish. Bugungi globallashuv va geosiyosiy muvozanatlar davrida harbiy diplomatiya davlatlar o'rtasidagi strategik hamkorlik va xavfsizlik siyosatini yuritishda muhim vositaga aylanmoqda. Ayniqsa, harbiy attashelar (fransuzcha "attaché" – biriktirilgan, vakillik qiluvchi) institutining faoliyati xalqaro siyosiy kommunikatsiyaning ajralmas qismiga aylandi. Harbiy diplomatiya – bu davlatlar o'rtasidagi harbiy-siyosiy, strategik va texnik hamkorlikni tashkil etuvchi diplomatik faoliyat turi bo'lib, u XVIII–XIX asrlarda shakllana boshlagan. Fransiya va Rossiya imperiyalari tomonidan ilk bor harbiy vakillik lavozimlari (attashelar) joriy etilgan. 1961 yilda qabul qilingan Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena konvensiyasi harbiy attashelarning maqomini huquqiy jihatdan mustahkamladi. Harbiy attashelarning amaliy faoliyati ko'p qirrali bo'lib, ular xavfsizlik bo'yicha axborot tahlili, strategik monitoring, harbiy-texnik bitimlarni muvofiqlashtirish, siyosiy muloqot yuritish va ko'p tomonlama diplomatik aloqalarni mustahkamlash bilan shug'ullanadi. Shuningdek, attashelar ochiq manbalarni o'rganish, harbiy rasmiy tadbirlarda ishtirok etish va ikki tomonlama harbiy delegatsiyalar o'rtasida vositachilik qilish funksiyalarini bajaradi. Zamonaviy harbiy diplomatiya kontekstida attashelar oldida yuzaga kelayotgan muammolar orasida axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, sun'iy intellekt asosidagi tahdidlar, razvedkaga oid taxminlar va geosiyosiy raqobat muhitidagi bosimlar alohida o'rin tutadi. Attashelik instituti hozirgi davrda kengayib, 'yumshoq kuch' (soft power) diplomatiyasining vositachisiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda harbiy attashelar xalqaro tizimda ko'p tomonlama xavfsizlik siyosatini muvofiqlashtirish, geostrategik manfaatlarni ilgari surish, hamda NATO, BMT, KXSHT kabi tashkilotlar doirasida mintaqaviy xavfsizlik

masalalarini yechishda faol ishtirok etmoqda. Xalqaro harbiy hamkorlikning institutsional tuzilmasi aynan ushbu attashelar orqali shakllanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikdan keyingi harbiy tashqi siyosatida attashelar institutiga alohida e'tibor qaratilgan. Chet el elchixonalarida faoliyat yuritayotgan harbiy diplomatlar O'zbekistonning milliy xavfsizlik strategiyasi, mudofa sohasidagi tashabbuslari va xalqaro hamkorliklarini ilgari surishda muhim vositachilar hisoblanadi. Xususan, MDH, Turk Kengashi, OIC kabi platformalar doirasida attashelar orqali harbiy-texnik hamkorlik rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy strategiyasida harbiy-diplomatik aloqalarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, harbiy attashelar xorijiy mamlakatlar bilan xavfsizlik, harbiy-texnik hamkorlik, tinchlikparvar missiyalar va xalqaro harbiy ta'lim sohalarida muloqot olib borishadi. Bunday kompleks vazifalarni samarali amalga oshirish uchun attashe shaxsida bir necha darajadagi kompetensiyalar shakllangan bo'lishi zarur: bular kasbiy, kommunikativ, sotsiomadaniy, axborot-analitik va axloqiy kompetensiyalar.

Ilmiy adabiyotlarda harbiy attashe faoliyatining quyidagi asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan:

harbiy-texnik axborotlarni yig'ish, tahlil qilish va hisobotlar tayyorlash;

ikki tomonlama harbiy hamkorlikni muvofiqlashtirish; xalqaro harbiy tadbirlarda ishtirok etish va o'z vakolatxonasini diplomatik doirada ifodalash;

qurolli kuchlar imiji va geosiyosiy manfaatlarini xorijiy muhitda ilgari surish.

Bu faoliyat turlari harbiy attashe shaxsidan yuqori kasbiy tayyorgarlikni, ijtimoiy-madaniy moslashuvchanlikni,

siyosiy tafakkurni va, albatta, xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini mukammal egallashni talab etadi.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, harbiy attashenining muvaffaqiyatli faoliyati uning quyidagi kompetensiyalariga bevosita bog'liq:

Tizimli strategik tafakkur – global siyosiy jarayonlarni harbiy nuqtayi nazardan tahlil qila olish qobiliyati;

Yozma va og'zaki diplomatik muloqot ko'nikmalari – rasmiy yozishmalar, hisoblar, notalar, protokol nutqlari;

Ingliz tilida erkin muloqot – xalqaro tashkilotlar, diplomatik vakillar va harbiy ekspertlar bilan samarali aloqa o'rnatish;

Axborot-analitik kompetensiya – ochiq va yopiq manbalar asosida harbiy-siyosiy tahlil qilish;

Etik va madaniy sezgirlik – qabul qiluvchi mamlakatning madaniy xususiyatlariga moslashuvchanlik.

Shuningdek, harbiy attashe kasbiy jihatdan doimiy o'rganishga ochiq bo'lishi, xalqaro qonunchilik, harbiy protokol, xavfsizlik siyosati, harbiy logistika kabi sohalaridagi bilimlarini yangilab borish kerak. Bu esa o'z navbatida, tayyorlov bosqichida kursantlarda o'z-o'zini o'qitish ko'nikmalari, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqish va tanqidiy fikrlashni shakllantirishni talab qiladi.

Ta'kidlash joizki, harbiy attashe kasbiy faoliyatida harbiy bilimlar bilan bir qatorda diplomatik did, notiqlik, til bilish, siyosiy sezgi, madaniy kompetensiya kabi ko'nikmalar kompleks tarzda amal qiladi. Shu bois, kursantlarni tayyorlashda faqat harbiy tayyorgarlik emas, balki lingvistik, psixologik va ijtimoiy tayyorgarlik ham o'quv jarayoniga integratsiya qilinishi zarur.

Harbiy attashelarni tayyorlashda qo'llaniladigan metodologiyalar:

Interdisiplinar yondashuv – harbiy, diplomatik, lingvistik va psixologik bilimlarni integratsiya qilish.

Kompetensiyaviy yondashuv – nazariy bilim emas, balki amaliy kompetensiyalarni shakllantirish.

Case-study metodikasi – xalqaro harbiy mojarolar, muzokara jarayonlari bo'yicha tahliliy vaziyatlarni yechish.

Simulyatsion mashg'ulotlar – diplomatik muzokaralar va protokol tadbirlarini modellashtirish.

Mustaqil ta'lim va tadqiqot – kursantlarda tanqidiy fikrlash va ilmiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Harbiy diplomatiya sohasida oxirgi yillarda yuzaga kelayotgan asosiy tendensiyalar va chaqiriqlar global siyosiy muhitning tezkor o'zgarishi bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, kiberxavfsizlik sohasidagi tahdidlarning ortishi harbiy diplomatiya faoliyatiga yangi qirralar va mas'uliyatlar yuklamogda. Harbiy attashelar kiberhujumlar va raqamli razvedka sohalarida ham hamkorlikni rivojlantirish, axborot

xavfsizligini ta'minlash borasida xalqaro muloqotlarda muhim rol o'ynamoqdalar (Ziegler, 2018).

Shuningdek, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan jangovar tizimlarning rivojlanishi harbiy diplomatiyaning texnik va strategik yo'nalishlarini kengaytirmogda. Attashelar yangi texnologiyalarni o'rganish, ularning xalqaro huquqiy normalarga muvofiqligini muvofiqlashtirish va monitoring qilish vazifalarini ham bajaradilar.

Harbiy diplomatiyada nafaqat qurolli kuchlar ko'rsatkichi, balki yumshoq kuch vositalaridan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. Harbiy attashelar mamlakatlar o'rtasidagi madaniy, ilmiy va ta'limiy almashinuvlarni targ'ib qilish orqali o'zining strategik manfaatlarini ilgari suradi. Masalan, harbiy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik, qo'shma mashg'ulotlar, xalqaro seminarlar va konferensiyalar harbiy diplomatiyaning yumshoq kuch elementlari sifatida xizmat qiladi (Nye, 2004).

Bugungi kunda harbiy diplomatiya nafaqat ikki tomonlama, balki ko'p tomonlama xalqaro tashkilotlarda ham muhim ahamiyat kasb etmogda. NATO, BMT, KXSHT kabi tashkilotlarda harbiy attashelar xavfsizlik siyosatini muvofiqlashtirishda vositachilik qiladilar, harbiy muloqotni rivojlantiradilar va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishda yordam beradilar. Bu esa global xavfsizlik arxitekturasining barqarorligiga xizmat qiladi (Walker & Ludwig, 2017).

O'zbekiston Respublikasining harbiy diplomatiyani rivojlantirishdagi istiqbollari uning strategik geografik o'rni, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro hamkorlikning kengayishi bilan bog'liqdir. Markaziy Osiyo mintaqasida yangi xavfsizlik chaqiriqlari yuzaga kelayotgan bir paytda O'zbekiston attashelarining mintaqaviy xavfsizlikka ko'rsatadigan ta'siri oshib bormogda (Karimov, 2021).

Bundan tashqari, O'zbekiston harbiy diplomatlari xorijiy mamlakatlarda o'zining milliy manfaatlarini ilgari surishda ko'proq interaktiv va innovatsion yondashuvlarni qo'llashga intilmogda. Bu esa o'z navbatida, harbiy diplomatiya sohasida zamonaviy texnologiyalar, til o'rganish va madaniy muloqot ko'nikmalarini yanada rivojlantirish zaruratini keltirib chiqarmogda.

Harbiy attashelarning tayyorlanishida yangi davr kompetensiyalari alohida ahamiyat kasb etmogda. XXI asrda xalqaro munosabatlar tizimidagi tezkor o'zgarishlar, gibrud urushlar, informatsion operatsiyalar va transmilliy xavf-xatarlar harbiy diplomatlarning roli va vazifalarini yanada murakkablashtirdi. Attashelar endilikda nafaqat harbiy-texnik ma'lumotlarni tahlil qilish, balki ijtimoiy tarmoqlar, global media maydoni va xalqaro tashkilotlarning siyosiy kun tartibini ham muntazam monitoring qilib borishlari zarur.

Shuningdek, xalqaro huquqiy normalar, xususan, qurolsizlanish shartnomalari, xalqaro humanitar huquq va mintaqaviy xavfsizlik bitimlari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish ularning diplomatik missiyasi samaradorligini oshiradi. Masalan, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) doirasidagi muzokaralarda qatnashuvchi harbiy attashelar nafaqat rasmiy delegatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi, balki yangi xavfsizlik paradigmalari bo'yicha ekspert sifatida faol ishtirok etadilar.

Bugungi kunda attashelarning kommunikativ kompetensiyalarida madaniyatlararo muloqot alohida o'rin tutmoqda. Turli mintaqalarda xizmat qiluvchi attashelar uchun qabul qiluvchi mamlakatning diniy qadriyatlarini, tarixiy tajribasi va siyosiy madaniyatini chuqur bilish diplomatik muvaffaqiyatning kalitidir. Bu jarayonda "yumshoq kuch" elementlari, ya'ni ta'limiy hamkorlik, qo'shma ilmiy izlanishlar, madaniy diplomatiya vositalari harbiy diplomatiyaning samaradorligini oshiradi.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, attashelarning tayyorlanishida xorijiy tillar, xususan, ingliz tilidan tashqari, rus, turk, xitoy va arab tillarini o'rganish ham dolzarb bo'lib bormoqda. Chunki xalqaro muzokaralarda ko'p tillilik yuqori diplomatik samaradorlikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, attashelarning doimiy ravishda ilmiy-tadqiqot faoliyatida ishtiroki, ilmiy maqolalar nashr etishi, xalqaro konferensiyalarda chiqishlari ularning professional imijini mustahkamlaydi.

Kelajakdagi harbiy attashelarni tayyorlash jarayonida raqamli kompetensiyalar ham muhim ahamiyatga ega. Kiberxavfsizlik, sun'iy intellekt va raqamli kommunikatsiya bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lgan mutaxassislar xalqaro xavfsizlik sohasida yuqori natijalarga erishishlari mumkin. Shu

sababli, o'quv dasturlarida "raqamli diplomatiya", "axborot xavfsizligi", "media savodxonlik" kabi fanlarni kiritish dolzarb hisoblanadi.

Shunday qilib, attashelarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirish nafaqat milliy xavfsizlik strategiyasiga, balki xalqaro barqarorlikka ham xizmat qiladi. Ularning faoliyati davlatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va global xavf-xatarlarga qarshi hamkorlikni kengaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, biz harbiy attashenining kasbiy faoliyatini — ko'p darajali, ko'p funksiyali va ko'p tilli kommunikativ faoliyat deb ta'riflashimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida, ushbu mutaxassislikka tayyorlanayotgan kursantlarda interdisiplinar kompetensiyalar majmuasini shakllantirishni taqozo etadi va diplomatik, lingvistik va madaniy kompetensiyalarni ham o'z ichiga olishi lozim. Harbiy attashelik instituti zamonaviy xalqaro aloqalarda nafaqat harbiy manfaatlarni himoya qiluvchi, balki mintaqaviy va global barqarorlikka xizmat qiluvchi ko'p funksiyali mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu institutning institutsional mustahkamlanishi va intellektual salohiyati global xavfsizlik arxitekturasini shakllantirishda muhim omil bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasida mustaqillikdan keyingi davrda harbiy attashelar instituti bosqichma-bosqich shakllandi. Bugungi kunda O'zbekiston harbiy diplomatlari dunyoning qator davlatlarida faoliyat yuritib, milliy xavfsizlik strategiyasi va mintaqaviy barqarorlik masalalarini ilgari surishda muhim rol o'ynamoqda. Shu bois, kelajakdagi attashelarni tayyorlashda interdisiplinar yondashuv, xalqaro tajribalarni o'rganish va milliy amaliyotni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Vienna Convention on Diplomatic Relations, 1961.
2. Barston, R. P. (2014). "Modern Diplomacy". London: Routledge.
3. Rana, K. S. (2011). "21st Century Diplomacy: A Practitioner's Guide". Continuum Publishing.
4. Nye, J. S. (2004). "Soft Power: The Means to Success in World Politics". Public Affairs.
5. Yuldashev, A. (2020). "Harbiy diplomatiya va O'zbekiston tashqi siyosati". Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
6. Vural, S. (2022). Military Diplomacy: Historical and Theoretical Framework. "The Journal of Security Studies".
7. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti – www.mfa.uz
8. Baylis, J., Smith, S., & Owens, P. (2019). The Globalization of World Politics: An Introduction to International Relations. Oxford University Press.
9. Cottey, A., & Forster, A. (2010). Reshaping Defence Diplomacy: New Roles for Military Cooperation and Assistance. International Institute for Strategic Studies.
10. Cornago, N. (2013). Diplomacy Beyond the State: The Foundations of Diplomatic Recognition. Palgrave Macmillan.
11. Edmunds, T. (2014). "Security Sector Reform, Defence Diplomacy and the UK". International Affairs, 90(2).
12. Nye, J. S., & Welch, D. (2017). Understanding Global Conflict and Cooperation: An Introduction to Theory and History. Pearson.
13. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi materiallari (ruxsat etilgan ochiq manbalar asosida).
14. Ziegler, C. (2018). International Security: Politics, Policy, Prospects. CQ Press.